



**“NAVOIY” ERKIN IQTISODIY ZONASINING TASHKIL
ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI**

Rahmatova Malika Sherzodovna

Nizomiy nomidagi TDPU Ijtimoiy-gumanitar

fanlarni o`qitish metodikasi (Tarix)

1-boshqich magistranti

malikarahmatova.0507@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasining tashkil etilish sabablari, asosiy maqsadlari va iqtisodiy ahamiyati tahlil qilingan. Zonaning infratuzilmasi, xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi roli hamda ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasining mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri, yangi ish o`rinlarini yaratishdagi o`rni hamda eksport salohiyatini oshirishdagi istiqbollari muhokama qilingan. Tahlillar asosida zonaning kelajakdagi rivojlanish yo`nalishlari bo`yicha xulosalar berilgan.

Kalit soʻzlar: Erkin iqtisodiy zonalar, sanoat mahsuloti, qoʻshma korxona, texnologiya, eksport, import, kapital. investitsiya va tashqi savdo aylanmasi.

Navoiy viloyati boy tabiiy resurslarga, ulkan iqtisodiy salohiyatga ega. Bu boylikni xalqimiz manfaati yo`lida ishlatish, yangi ish o`rinlarini yaratishga alohida e`tibor qaratilmoqda.

Sh.Mirziyoyev



O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan Navoiy viloyati yirik sanoat, transport-logistika va tabiiy resurslarga boy hudud sifatida ajralib turadi. Viloyat 1982-yilda tashkil etilgan bo‘lib, umumiy maydoni qariyb 111 ming kvadrat kilometrni tashkil qiladi. Aholisi soni 2024-yil holatiga ko‘ra 1 million 100 ming nafardan ortiq bo‘lib, viloyatning ma‘muriy markazi — Navoiy shahri hisoblanadi.

Navoiy viloyati O‘zbekiston iqtisodiy xaritasida muhim o‘rin egallaydi. Bu yerda tog‘-kon sanoati, rangli metallurgiya, kimyo, energetika, qurilish materiallari sanoati va qishloq xo‘jaligi yaxshi rivojlangan. Ayniqsa, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” va “Navoiy issiqlik elektr stansiyasi” kabi yirik korxonalar viloyat iqtisodiy salohiyatining asosiy tayanchlaridandir.¹

Hududning geografik joylashuvi – mamlakatning markaziy transport yo‘llari chorrahasida joylashgani – uni logistika va xalqaro savdo uchun strategik muhim nuqtaga aylantiradi. Shu boisdan ham Navoiyda erkin iqtisodiy zonaning tashkil etilishi — mintaqaning salohiyatidan oqilona foydalanish, investitsiyalarni faol jalb etish va innovatsion rivojlanish uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Bu jarayonda erkin iqtisodiy zonalarining (EIZ) tashkil etilishi muhim omillardan biri hisoblanadi. Xususan, “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi mamlakatimizda sanoatni modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb etish va eksport salohiyatini oshirish borasida keng imkoniyatlarni yaratmoqda. Ushbu zona strategik geografik joylashuvi, zamonaviy logistika infratuzilmasi va qulay investitsion muhitga ega bo‘lib, nafaqat respublika miqyosida, balki Markaziy Osiyo mintaqasida ham muhim ahamiyat kasb etadi.²

¹ <https://navoi.uz>

² <https://www.invest.gov.uz>



“Navoiy” EIZning tashkil etilishi O‘zbekiston hukumati tomonidan xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni yo‘lga qo‘yish va mamlakat eksport salohiyatini kuchaytirish borasidagi keng ko‘lamli islohotlarning mantiqiy davomidir.

Respublikamizda ilk bor 2008 yil 2-dekabrda Erkin iqtisodiy zonaning Navoiy viloyatida tashkil etilishi, hududning iqtisodiy qulayligidan dalolat beradi. Navoiy Erkin iqtisodiy zonasi Karmana tumanining 645 gektar hududda joylashgan bo‘lib, u xalqaro aeroport, xalqaro temiryo‘l va avtomobil magistral yo‘li infrastrukturasida joylashgan.³

Erkin iqtisodiy zona – mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma‘muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan hudud hisoblanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, hududning erkin iqtisodiy zonasi asosan keng ko‘lamdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqish va eksport qilish bilan shug‘ullanadi. Respublikamizda erkin iqtisodiy zonalar bilan hamohang maxsus iqtisodiy zonalar ham shakllantirilishi qator siyosiy nizom, farmon va qonunlarda aks ettirildi.⁴

O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”⁵gi Qonunning 1-bob 3-moddasida maxsus iqtisodiy zonaga - tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalarini va mahalliy investitsiyalarni yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega bo‘lgan hudud – deb ta’rif berilgan.

Yuqorida berilgan har ikkala ta’rifga ko‘ra erkin iqtisodiy zona yoki maxsus iqtisodiy zonalar tashkil qilingan mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida,

³ [PF-4059-coh 02.12.2008. Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to‘g‘risida](#)

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF 5719 15.05.2019 y

⁵ [O‘RQ-604-coh 17.02.2020. Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida](#)



xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish orqali yuqori texnologiyali raqobatbardosh ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bilan eksportbop va import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish asosida, mazkur mintaqalardagi aholini ish bilan ta'minlash orqali ularning turmush darajasini yuksaltirish imkonini beradigan alohida huquqiy rejimga ega bo'ladigan chegarali hudud hisoblanadi. O'zbekistonning yangi iqtisodiy faoliyatini takomillashtirish, kichik va o'rta biznesni rivojlanayotganligi, mamlakatimizda sanoatning hududiy tashkil etilishini erkin iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi kabi yangi shakllari vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 14 ta erkin iqtisodiy zona faoliyat yuritmoqda. Bular "Navoiy", "Angren", "Jizzax", "Urgut". "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Xazorasp" erkin iqtisodiy zonalarida 62 ta loyiha amalga oshirilgan. Farmasevtika sohasiga ixtisoslashgan "Nukus-farm", "Zomin-farm", "Kosonsoy-farm", "Sirdaryo-farm", "Boysun-farm", "Bo'stonliq-farm", "Parkent-farm" kabi 7 ta yangi erkin iqtisodiy zonani rivojlantirish bo'yicha izchil ishlar olib borilgan.⁶ Buning natijasida ko'plab kimyo-laboratoriyalar faoliyati natijasida ko'plab tabiiy farm mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Ma'lumki, Navoiy viloyati mamlakatimizning yuksak taraqqiy etgan hududlaridan biri. Ayniqsa, viloyat tabiiy boyliklarning ko'pligi, sanoat salohiyatining yuqori ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Ana shu imkoniyatlarni hisobga olgan holda 2009-yilda O'zbekistondagi birinchi erkin iqtisodiy zona aynan Navoiy viloyati hududida tashkil etilgan edi.⁷

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasi faoliyatini kengaytirish va Navoiy viloyatida kichik sanoat zonalarini tashkil etish choratadbirlari to'g'risidagi" Qaroriga muvofiq foydalanilmayotgan ishlab

⁶ [Erkin iqtisodiy zonalar](#)

⁷ Musayev P., Musayev J. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Darslik. –T.: Sharq NMAK, 2019. -104.b



chiqarish maydonlari “Navoiy” EIZga kiritildi, shuningdek, Navoiy, Zarafshon shaharlari, Karmana va Xatirchi tumanlari nomi bilan ataluvchi kichik sanoat zonalari barpo etildi.⁸

Erkin iqtisodiy zonalarda xo`jalik yurituvchi subyektlar bir qator imtiyoz va preferetsiyalarga ega bo`ladi. Xususan, “Navoiy” EIZ ishtirokchisi maqomini olgan korxonalar quyidagi to`lovlardan ozod etiladi:

- yer solig`i, daromad solig`i, yuridik shaxslar mol-mulk solig`i, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to`lovidan;

- bo`sh mablag`larni yangi korxonalarni tashkil etish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarishlarni modernizatsiyalash, rekonstruksiya qilish va texnik, texnologik qayta jihozlash, kengaytirish, ishlab chiqarish binolarini qurish, o`z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur xomashyo va materiallar xarid qilishga maqsadli yo`naltirgan holda o`z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kiriladigan uskunalar, xomashyo, materiallar hamda butlovchi buyumlar, mahsulot eksport qilinganda vujudga keladigan qo`shilgan qiymat solig`ining manfiy summasi qaytarilmasligi huquqi bilan bojxona to`lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruv yig`imlaridan tashqari);

- respublikada ishlab chiqarilmaydigan hamda belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro`yxatlar bo`yicha loyihalarni amalga oshirish doirasida olib kiriladigan qurilish materiallari bojxona to`lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruv yig`imlaridan tashqari).⁹

Hozirgi kunda “Navoiy Erkin iqtisodiy zonasi”da Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Italiya, Xitoy xalq respublikasi, Birlashgan Arab Amirliklari, Hindiston, Singapur va Rossiya davlatlari bilan istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Telekom

⁸ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi faoliyatini kengaytirish va Navoiy viloyatida kichik sanoat zonalarni tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risidagi” Qarori.

⁹ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-maydagi “Navoiy viloyatini innovatsion, yuqori texnologiyalarga asoslangan, eksportga yo`naltirilgan va import o`rnini bosdigan ishlab chiqarishlar uchun erkin iqtisodiy zona sifatida belgilash chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoni.



Innovations” mas’uliyati cheklangan jamiyat qo’shma korxonasi (Singapur, Xitoy), “TV tyunerlar, ADSL modemlar va Home Gate way” qurilmalarini ishlab chiqaruvchi tashkilot, “UzEraeCabel” mas’uliyati cheklangan jamiyat qo’shma korxonasi (Koreya respublikasi), “Avtomobillar uchun kabel va akkumulyator jgutlarini ishlab chiqaruvchi”, “UzEraeAlternator” mas’uliyati cheklangan jamiyat qo’shma korxonasi (Koreya respublikasi), “Avtomobillar uchun generator va compressor” ishlab chiqaruvchi tashkilotlar faoliyat yuritmoqa.

Shu bilan birga korxonalarda tayyorlanayotgan yuqori kuchlanishga chidamli kabel similar ”National Plast” mas’uliyati cheklangan jamiyat qo’shma korxonasi Italiya hamkorligida ishlab chiqariladi. ”GREN LINE” mas’uliyati cheklangan jamiyat qo’shma korxonasida alyumin profil va alyumin mahsulotlari hamda O`zbekiston - Janubiy Koreya qo’shma korxonasida esa avtomobillar uchun yuqori bosimli gazballonlar, emal simlar, statyor, rotor, dori-darmonlar, mobil telefonlar, noutbuk, smartfon va boshqa elektrotexnika mahsulotlari, tibbiy buyumlar, mashinasozlik, avtomobilsozlik, qurilish materiallari, kimyo va neft kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish yo`lga qo`yilgan. Shuningdek, qurilish ishlari va gipsakartonlarni montaj qilishda qo`llaniladigan turli ashyolar, polipropilin quvurlar hamda ularni ulashda foydalaniladigan qismlar, ttransport vositalari uchun tormoz qismlari, quyosh issiqlik panellari, tikuv mashinalari, maishiy texnika jihozlari, gilamlar ishlab chiqarilmoqda. Yuqorida ishlab chiqarilgan mahsulotlar MDH davlatlari, Ukraina, Polsha, Chexiya, Germaniya, Kanada, AQSh va boshqa xorijiy davlatlarga eksport qilinmoqda.

Ma`lumotlariga ko`ra Navoiy Erkin iqtisodiy zonasida 2009-2016 yillarda 22 ta loyiha amalga oshirilgan bo`lib, 124 mln. AQSh dollari miqdorida foyda ko`rgan. Bu holat o`sha davrda korxonalar sonining qisqaligi bilan izohlanadi. 2017-2018 yillarda MDH va jahon mamalkatlarining sohalarga kiritgan investitsiyalari natijasida 35 ta loyiha amalga oshirildi hamda buning natijasi yuqori ko`rsatkichga ega bo`ldi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yilda Navoiy viloyatidagi tashrifi munosabati bilan hudud to'liq erkin iqtisodiy zonaga aylantirilishi e'tirof etildi. Bunga binoan "Navoiy viloyatini innovatsion, yuqori texnologiyalarga asoslangan, eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosadigan ishlab chiqarishlar uchun erkin iqtisodiy zona sifatida belgilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 15.05.2019 yil 5719-sonli Prezident Farmoni e'lon berildi.

Ushbu farmon 2030 yil 1-yanvarga qadar, keyinchalik belgilangan tartibda muddatini uzaytirish imkoniyati bilan quyidagilarni o'z ichiga oladi: Navoiy viloyati ishlab chiqarish salohiyatidan kompleks, samarali foydalanish, hududda yirik logistika markazini yaratish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va Navoiy erkin iqtisodiy zona ishtirokchisi bo'lgan korxonalarga Yer, daromad, yuridik shaxslarning mol-mulkiga, kichik korxonalar uchun yagona soliqlar kiritilgan investitsiya hajmiga qarab muddati belgilab qo'yildi.¹⁰

"Navoiy" EIZda Buyuk Britaniya, Xitoy, Koreya Respublikasi, Italiya, Hindiston singari bir qator mamlakatlar bilan hamkorlikda investitsiya lohiyalari amalga oshirib kelinmoqda. Bu borada Xitoy sarmoyalari ham o'z o'rniga ega. Xitoy O'zbekiston iqtisodiyotiga eng ko'p investitsiya kiritayotgan davlatlardan biridir. Mamlakatimizda Xitoy kapitali ishtirokidagi 700 dan ziyod korxona faoliyat ko'rsatmoqda.

O'tgan yillar davomida xitoylik sarmoyadorlar O'zbekiston iqtisodiyotiga qariyb 7,8 milliard dollar miqdorida investitsiya kiritgan. Bugungi kunda "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasida 19 ta korxona faoliyat yuritmoqda, ulardan 4 tasi Xitoy investitsiyalari ishtirokida tashkil etilgan.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-maydagi "Navoiy viloyatini innovatsion, yuqori texnologiyalarga asoslangan, eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosdigan ishlab chiqarishlar uchun erkin iqtisodiy zona sifatida belgilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.



“Navoiy” EIZ tashkil etilganidan buyon jami 122 mln. AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritilgan. Shundan 35% ga yaqini to`g`ridan-to`g`ri investitsiyalar hisoblanadi.¹¹

“Navoiy” EIZ hududida faoliyat olib borayotgan O`zbekiston-Xitoy qo`shma korxonalari haqida to`xtalib o`tamiz:

1. “Telecom Innovation” O`zbekiston-Singapur-Xitoy qo`shma korxonasi – korxonada raqamli televideniye uchun yillik quvvati 50 ming dona bo`lgan tyunerlar ishlab chiqariladi.
2. “Navoi Hunan Pulp” MCHJ QK – ayollar va bolalar uchun yuqori sifatli gigiyena mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxona. Bu yerda 8 turdagi mahsulot tayyorlanib, ularning barchasi olimlar tomonidan innovatsion ishlanmalar tomonidan ishlab chiqariladi. Qo`shma korxonada ishlab chiqarish jarayonida yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar yaratishda yuqori texnologiyalardan foydalaniladi. Ishlab chiqarish uchun xomashyo AQSH va Xitoydan import qilinadi. Korxonaning ustuvor maqsadlaridan biri – ichki va tashqi bozorlarda yuqori sifatli import o`rnini bosuvchi raqobatbardosh mahsulot turlarini yaratishdan iborat. Bundan tashqari ishlab chiqarish jarayoniga chet el investitsiyalarini jalb etish, innovatsiyalar va yuqori texnologiyalardan samarali foydalanish, yangi ish o`rinlarini yaratishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi. “Navoi Hunan Pulp” qo`shma korxonasida ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar davlat ro`yxatidan o`tgan guvohnomaga, mahsulot samaradorligi va xavfsizligini ta`minlovchi sertifikatga ega.
3. “Hayat Power Cable Systems” MCHJ QK – “Navoiy” EIZda 400 kV gacha bo`lgan tikilgan polietilen izolyatsiyali kuchlanish kabellarini ishlab chiqarishni tashkil etish to`g`risidagi investitsion loyihaga asosan tashkil etilgan. Qo`shma korxonaning ustav kapitali 18,8 mln. AQSH dollariga teng bo`lib, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati (50%),

¹¹ Development of Navoi Free Industrial Economic Zone in Uzbekistan. –Seoul.: Knowledge Sharing Program, 2010. P.62.



“Uzkabel” AJ (25%) va Xitoyning “Gulf Cable Trading Company” (25%) uning taʼsischilari hisoblanadi.

4. “Navoi Cable Connector” QK – Xitoyning “Gulf Cable Trading Company” kompaniyasi tomonidan tashkil etilgan ishlab chiqarish quvvati. Eʼtiborli jihati shundaki, ushbu qoʻshma korxona 100% Xitoy investitsiyalari asosida faoliyat boshlagan. Korxonaning asosiy faoliyat yoʻnalishi alyuminiy va alyuminiy qotishmalaridan elektr kabellari, shuningdek, yuqori voltli elektr uzatkich liniyalari uchun elektr kabellari ishlab chiqarish hisoblanadi.¹²

“Navoiy” erkin iqtisodiy zonasida Oʻzbekiston va Xitoy oʻrtasidagi investitsion hamkorlik mamlakatlarning iqtisodiy imkoniyatlari darajasida emasligini aytib oʻtish lozim. 10 yil davomida atigi 4 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilgan, xolos. Navoiy viloyatining tabiiy resurs salohiyatidan umumli foydalanish, investitsiya muhitini yanada yaxshilash, investitsion jozibadorlikni yaratish, bu hududga xorijiy mamlakatlar, xususan, Xitoy sarmoyalarini keng jalb etish asosiy ustuvor masalalardan hisoblanadi.

“Navoiy” EIZda Xitoy investitsiyalarini quyidagi tarmoqlarga olib kirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- qurilish materiallari sanoati;
- toʻqimachilik sanoati;
- oziq-ovqat sanoati;
- farmasevtika sanoati;
- transport-logistika;
- kimyo sanoati;

¹² Karimov D. Oʻzbekistonda erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirish istiqbollari. Magistrlik dissertatsiyasi. –T.: TMI, 2018.– B.38



- elektronika va elektrotexnika sanoati;
- quyosh panellari ishlab chiqarish.

Maqola oxirida yana bir qiziqarli ma'lumotni aytib o'tmoqchiman.

O'zbekistonning investitsion muhitni yaxshilash, ushbu sohadagi huquqiy amaliyotni takomillashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, xorijdagi erkin sanoat — iqtisodiy zonalarining ilg'or tajribalarini tatbiq etish borasidagi muvaffaqiyatlari butun jahonda keng e'tirof etilmoqda, deb yozadi "[Jahon](#)" AA.

Xususan, keyingi yillarda "Navoiy" erkin-iqtisodiy zonasi (EISZ)da xorij kapitalini jalb etishni yanada oshirish, xorij investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, investorlar huquqlarini himoya qilish, moddiy-texnik va tashkiliy sharoitlarni takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar majmuasi xorijda yuqori baholanmoqda.

fDi Magazine jurnali tahririyati tomonidan tashkil etilgan "Eng yaxshi EISZ" xalqaro tanlovida "Navoiy" EISZ quyidagi nominatsiyalarda g'olib bo'ldi:

- "Markaziy Osiyodagi yilning eng yaxshi erkin iqtisodiy zonasi" nominatsiyasida birinchi o'rin;
- "Osiyodagi yilning eng yaxshi erkin iqtisodiy zonasi" nominatsiyasida ikkinchi o'rin;
- "Osiyodagi kichik va o'rta biznesni jalb etish bo'yicha yilning eng yaxshi erkin iqtisodiy zonasi" nominatsiyasida ikkinchi o'rin.

Tegishli sifat sertifikatini bilan birga "Navoiy" EISZ o'z nashrlari yoki marketing materiallarida fDi Global Free Zones of the Year 2016 Awards eksklyuziv logotipidan foydalanish huquqiga ega bo'ldi.



fDi Magazine jurnali fDi Intelligence analitika markazi tomonidan chop etiladi va Financial Times noshirlik guruhi tarkibiga kiradi. U bevosita xorijiy investitsiyalar global bozoridagi tamoyil va prognozlarni tahlil qilishga ixtisoslashgan.

Jurnal bir yilda 6-marta nashr etiladi va yirik kompaniyalar, tijorat banklari, investitsiya fondlari, turli davlatlardagi davlat muassasalaridan iborat 15 mingdan ortiq obunachisiga ega.¹³

Bu albatta juda quvonarli xabar. Viloyatimizda bo'layotgan albatta, hududimiz investitsion jozibasining ortib borayotganidan dalolat beradi. "Navoiy" EISZning xalqaro miqyosda tan olinishini, nafaqat hududdagi iqtisodiy rivojlanish, balki O'zbekistonning global bozorlar bilan integratsiyalashuvining yana bir amaliy tasdig'i sifatida baholash mumkin. Shuningdek, ushbu muvaffaqiyat kelgusida yangi loyihalar, xorijiy sarmoyadorlar ishtiroki va innovatsion texnologiyalarni jalb etishga keng yo'l ochadi. Bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirish va viloyat iqtisodiyotini yanada diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Kelgusida "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasining xalqaro reytinglarda yanada yuqori pog'onalarga ko'tarilishi uchun, mavjud infratuzilmani yanada takomillashtirish, ishbilarmonlik muhiti va sarmoyadorlar uchun qulay sharoitlar yaratishda uzluksiz islohotlar olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasining tashkil etilishi O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan sanoat va iqtisodiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu zona nafaqat mamlakatimiz iqtisodiyotining modernizatsiyasi va diversifikatsiyasi yo'lida muhim qadam bo'ldi, balki xorijiy investorlar uchun qulay va ishonchli biznes muhitini shakllantirishda ham muhim rol o'ynamoqda.

¹³ ["Navoiy" EISZ – Markaziy Osiyoda yilning eng yaxshi erkin iqtisodiy zonasi deb topildi - Sputnik O'zbekiston, 14.10.2016](#)



Tadqiqot davomida “Navoiy” EISZning yaratilish sabablari, asosiy maqsadlari, funksional vazifalari va infratuzilmasi atroflicha tahlil qilindi. Xususan, zona hududida zamonaviy sanoat korxonalarining tashkil etilishi, xorijiy investitsiyalar oqimining ortib borishi, ishlab chiqarish quvvatlarining kengaytirilishi, eksport salohiyatining oshishi hamda yangi ish o‘rinlarining yaratilishi iqtisodiy taraqqiyotga bevosita ta’sir ko‘rsatayotgani kuzatildi.

Bundan tashqari, erkin iqtisodiy zonaning mavjudligi viloyatning logistika salohiyatini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni jalb qilish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishda ham muhim omil bo‘lmoqda. Ayniqsa, zamonaviy infratuzilma, soliq va bojxona imtiyozlari, qulay geografik joylashuv xorijiy investorlar uchun jozibadorlikni oshirmoqda. Shu boisdan, kelgusida “Navoiy” EISZ faoliyatini yanada takomillashtirish, ilg‘or tajribalarni tatbiq etish, inson kapitaliga sarmoya kiritish va samarali boshqaruv tizimini joriy etish orqali hududiy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash mumkin. Ushbu zona nafaqat Navoiy viloyati, balki butun O‘zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanishida muhim o‘rin egallashi shubhasizdir.

Navoiy viloyati – ulkan investitsiya va strategik iqtisodiy markazlaridan biri hisoblanib, u yerga xorijiy sarmoyadorlar diqqatini jalb etish, investitsiyalar oqimini kengayitish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish asosiy vazifalarimizdan biridir.

Bu yutuq – butun viloyatimiz aholisining farovonligi, bandlik darajasining oshishi hamda zamonaviy, barqaror iqtisodiyot barpo etish yo‘lida tashlangan muhim qadamdir. Asosiysi, iqtisodiyotimiz rivojida, xalqimiz turmush sharoitini yanada yaxshilanishda xorijiy investitsiyalar asosida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarining o‘rni beqiyos va ulardan oqilona foydalanish bizning mas’uliyaliyatimizda bo‘lishi kerak.